



YURIDIK PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONINI TEXNOLOGIYALASHTIRISHNING AFZALLIKLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6560212>

Ochilova Yulduz Nurullayevna

Navoiy viloyati yuridik texnikumi

o'quv bo'limi uslubchisi

Annotatsiya: *ushbu tezisdagi samarali dars jarayonini tashkil etish zarur aspektlar va ularning afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, metod, vosita, o'qitish shakllari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, seminar, ma'ruza va boshqalar.*

Bugungi kunda professional ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan yaxshilash maqsadida o'quvchilarning ongi salohiyatini hisobga olib qolaversa ilg'or xorijiy mamalakatlar tajribasini o'rganish orqali har jihatdan zamonaviy va mukammal ta'lim tizimini yaratish yurtimizda asosiy masala hisoblanmoqda. O'quvchilarning qiziqish va intilishlarini hisobga olgan holda, ularga o'quv dargohida har tomonlama puxta ta'lim va tarbiya berish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, qalbi va ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirib borish, shu orqali mehnat bozorida raqobatbardosh kadr yetishtirib chiqarish, o'z kasbini ustasi, professional mutaxassis bo'lish uchun ta'lim tizimining har bir tarkibiy tuzulmasi chuqur tahlil qilinmoqda. Ta'lim jarayonining sifatli tashkil etilishi albatta ko'pgina omillarga bog'liq, xususan, uning shakli, vositalari, mahoratli pedagog kadrlar, muassasaning moddiy texnik ta'minlanganligi va boshqalar. Shuningdek, o'quv jarayonida qo'llanilayotgan metodlar va vositalarning o'rinli qo'llanilishi albatta uning samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metod va texnologiyalarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Yuridik ta'lim muassasalarida samarali dars jarayonini tashkil etishda quyidagi aspektlarga amal qilish zarur:

➤ O'qituvchi dastlab o'z sohasi doirasida chuqur bilimdon bo'lmog'i va darsni olib borishni psixologik-pedagogik jihatlarini yaxshi o'rganmog'i lozim. O'ustida muntazam ishlab yangi metod-texnologiyalarni, uslubiy qo'llanma va taktikalarni o'zlashtirmog'i lozim;

➤ Dars jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ya'ni o'quvchining individual sifat va qobiliyatlarini hisobga olib, eslab



qolish va mantiqiy va tanqidiy fikr rivojlantirishga uning xususiy savodxonligini oshirishga urg'u berish;

- Mustaqil darslar sonini ko'paytirish zarur;
- O'qituvchi va o'quvchilar hamkorlikdagi faoliyatini oshirish;
- Bevosita amaliyot bilan darslarni bog'lash, jonli ish jarayonida o'quvchilar ishtirokini ta'minlash;
- Mashq qilish-amaliy metodlardan foydalanish
- Darsda yuqori texnologiyalarga ega ta'lim vositalaridan foydalanish; internet, texnik va axborot kommunikatsion vositalaridan unumli foydalanish;
- Maxsus dars xonalarida, laboratoriyalarda amaliy mashg'ulotlar olib boorish lozim

Shuningdek dars jarayonining qay tarzda tashkil etilishi ham muhim ahamiyatga ega. Oliy yuridik ta'lim muassasalarida asosan, dars ma'ruza, amaliyot, seminar va mustaqil ta'lim ko'rinishida tashkil etiladi. Professional ta'lim bo'g'imida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlar ham bevosita mehnat faoliyatiga tayyor kadr sifatida chiqariladi. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida yuqoridagi shklarni qo'llash bilan birga amaliyotga ko'proq jalb etilishi maqsadga muvofiq. Xulosa qiladigan bo'lsak, dars jarayonini tug'ri tashkillashtirish va texnologiyalashtirish uning samarali bo'lishini va ham o'qituvchi, ham o'quvchilarning muntazam o'z ustida ishlashiga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. B.X.Xodjayev. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent-2017